

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI BERUVCHII
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

XASHIMOV SABITXAN

**PAXTANI TABIIY XUSUSIYATLARIGA TA'SIR ETMASDAN MAYDA
IFLOSLIKLARDAN TOZALASHNI VERTIKAL QURILMASINI
YARATISH VA UNING PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika
va robotatexnika tizimlari**

**TEXNIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Doktorlik (DSc) dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторский (DSc) диссертации

Contents of the doctoral (DSc) dissertation abstract

Xashimov Sabitxan

Пахтани tabiiy xususiyatlariga ta’sir etmasdan mayda iflosliklardan tozalashni vertikal qurilmasini yaratish va uning parametrlarini asoslash..... 3

Хашимов Сабитхан

Создание вертикального устройства для очистки хлопка от мелких примесей без ущерба для природных свойств и установления его параметров 27

Khashimov Sabitkhan

Creating a vertical device for cleaning cotton from small impurities without compromising the natural properties and establishing its parameters..... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.09.2023.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
FAN DOKTORI (DSc) ILMIY DARAJASINI BERUVCHII
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

XASHIMOV SABITXAN

**“PAXTANI TABIIY XUSUSIYATLARIGA TA’SIR ETMASDAN MAYDA
IFLOSLIKLARDAN TOZALASHNI VERTIKAL QURILMASINI
YARATISH VA UNING PARAMETRLARINI ASOSLASH”**

**05.02.03 – Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika
va robotatexnika tizimlari**

**TEXNIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.DSc/T281 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Namangan muhandislik qurilish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nammti.uz) (va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Muradov Rustam Muradovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shariboyev Nosirjon Yusupjanovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Ergashev Jamoliddin Samatovich
texnika fanlari doktori, professor

Abbasov Ilhom Zapirovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.09.2023.T.66.01 raqamli ilmiy kengash asosida fan doktori (DSc) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil “28” fevral soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahar, Kosonsoy, 7-uy. tel: (+99869) 228-76-71, faks: 228-76-75; e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik- texnologiya instituti 3-o‘quv binosi, 1-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiyasi ishi bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (359-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (69) 228-76-71).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “13” fevral kuni tarqatildi.
(2024-yil “21” noyabrdagi dagi. B2- raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M.Maxkamov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, dotsent

Sh.A.Mahsudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, texnika fanlari falsafa
doktori, dotsent

N.M.Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, texnika
fanlari doktori, professor

KIRISH (doktori (DSc) dissertatsiyaning annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda savdo tashkilotlarining ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi to'qimachilik va kiyim-kechak import qiluvchisi bo'lib, paxta xomashyosini tozalashda energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida uning ulushi 23 foizni tashkil etib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarining import qiymati yiliga 5,8 foizga o'sib borishi ko'zatilmoqda va tozalashda ish jarayonini sifatli amalga oshiradigan mashinalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan AQSh esa, dunyodagi eng yirik to'qimachilik eksportchilaridan biri bo'lishi bilan bir qatorda ikkinchi yirik importyor hisoblanadi energiya-resurstejamkor texnika vositalari va qurilmalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxtani dastlabki ishlashning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, paxtani tozalash texnologik jarayonida uning dastlabki sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolishni imkonini beradigan, mahsulot sifatini boshqara oladigan texnologiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada jumladan paxtani iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish ham muhim ro'l o'ynaydi. Ishlab chiqarishning har bir bosqichida mahsulot sifati va miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qiluvchi texnikaviy yechimlarni, ishlash rejimlari va ko'rsatkichlarini optimallashtirish uchun mazkur sohadagi tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, paxtani quritish va tozalashning resurstejamkor samarali uskunalarini yaratish usuli dolzarb vazifalardan biri bo'lib, ushbu muammolarni hal qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxtachilik tarmog'ini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash, ishlab chiqarish va paxta xom ashyosini qayta ishlash rentabelligini, shu bilan birga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Shu jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmonida, jumladan "...Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yangi ichki mahsulotda sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qililib, bunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish..." bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan chiqindiga chiqib ketayotgan tolalarni tutib qolish va changli havoni samarali tozalashni amalga oshiradigan mashinalarning texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-son "Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-fevraldagi 253-son "Paxta, to'qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Paxta xomashyosi tarkibidagi iflos aralashmalarni tozalashning samarali texnologiyalarini yaratish va buni ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlariga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar jahonning yetakchi laboratoriyalari, ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, International Cotton Advisory Committee, USDA Agricultural Research Service, Samuel Jackson Incorporated (AQSH), Australian Association of Cotton Scientists, Cotton Research and Development Corporation (Avstraliya), Central Institute for Research on Cotton Technology, Bajaj Steel Industries Limited (Xindiston), Instituto Agronômico do Paraná, Universidade Federal de Viçosa (Braziliya), National Research Center for cotton processing engineering and technology, Cotton Research Institute of Nanjing Agricultural University Lebed (XXR), Central Cotton Research Institute, Pakistan Central Cotton Committee (Pokiston), Cotton Research Institute, GAP Agricultural Research Institute (Turkiya), Cotton and Textile Holding Industries Holding Co (Misr), Paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash texnologiyasini takomillashtirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: paxtani iflosliklardan tozalashning zamonaviy avtomatlashgan tizimi yaratilgan (Lummus Gentle Ginning System, AQSH); chigitli paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalashning samarali texnologiyasi ishlab chiqilgan (Lummus, AQSH. Cotton research and development corporation, Avstraliya)¹.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash texnologiyasini takomillashtirish va tadqiq etish bilan horijda W.S.Anthony, R.V.Baker, R.M.Sutton, S.E.Hughs, J.W.Laird, E.M.Barnes, M.N.Gillum, P.G.Patil, P.A.Boving, V.G.Arude, S.K.Shukla, D.W.Van Doorn, B.M.Norman va boshqalar shug‘ullanishgan. Paxtani mayda iflosliklardan tozalashning samarali texnika va texnologiyasining nazariy va amaliy asoslarini yaratish, asosiy ishchi qismlarning parametrlari va ularning tozalash samaradorligiga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar respublikamizdagi olimlari, shu jumladan G.I. Miroshnichenko, Ye.F.Budin, B.V.Loginov, G.I.Boldinskiy, R.Z.Burnashev, A.E.Lugachyov, A.P.Parpiev, B.Mardonov, X.T.Axmadxo‘jaev, R.M.Muradov, A.A. Safaev, B.G. Kadirov, A.D.Djo‘raev, Sarimsaqov O.Sh, I.D.Madumarov, I.K.Sabirov, Sh.Sh.Xakimov, M.Agzamov, F.A.Saadi, M.M.Djamalova, M.J. Koshakova, V.N.Guseynov, Yu.S.Sosnovskiy, X.Sidikov, K.Abdullaev, D.A.Usmanov, Dj.Miraxmedov, R.K.Djamolov, B.Ch.Pardaev, R.X.Rasulov, Parpiev A.,

¹ Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи www.icac.org; <http://www.busa.com>; <http://www.cotton.org>; The USA, Journal of Cotton Science 3/2015. The USA. The Cotton Foundation. Journal DOI: <https://doi.org/10.36713/epra2016>; www.eprajournals.com; International Scientific Journal <http://T-Science.org>; Palarch's Journal of Archaeology Of Egypt/Egyptology <https://archives.palarch.nl/index.php/jae>; <https://dx.doi.org/10.15863/TAS> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

Ye. Tadaeva, A.Bobomatov, O.X.Kulmuminov va boshqa olimlar tomonidan o'tkazilgan. Ushbu ko'rib o'tilgan yuqoridagi barcha tadqiqotlarda, paxtani mayda iflosliklardan tozalashda uni tabiiy xususiyatlariga ta'sir etmasdan (mexanik zarbasiz) vertikal texnologiyasiga oid masalalar qisman ko'rib o'tilgan bo'lsada, o'zining samarali yechimini topmagan va amaliy tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № T-2021-180 raqamli "Tola sifatini yaxshilash maqsadida paxta separatori konstruksiyasini takomillashtirish" (2021-2022) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayonida uni tabiiy xususiyatlarini saqlab qolishni ta'minlovchi maqbul ish rejimi asosidagi vertikal tozalagich qurilmasini ishlab chiqish orqali tola sifatini yaxshilashga va chigitni shikastlanishini oldini olishga qaratilgan tozalash texnologiyasini takomillashtirishni asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: chigitli paxtani tozalash texnika va texnologiyasining rivojlanish holatini analitik tahlil asosida takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash;

chigitli paxtani tozalash texnologik jarayonlarining nazariy tadqiqotlarini rivojlantirish va vertikal usulda separativ texnologiyaga asoslangan paxtani mayda iflosliklardan tozalovchi paxta tozalash qurilmasining tozalash jarayonini modellashtirish asoslarini yaratish;

takomillashtirilgan paxta tozalash qurilmasining ishlab chiqish, tajribaviy sinovlarni o'tkazish va uning texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash;

oqim liniyada o'rnatilgan vertikal usulda tozalovchi takomillashtirilgan paxta tozalash qurilmasini ishlab chiqarish sharoitida sinash va uning texnologik ko'rsatkichlarini aniqlash;

chigitli paxtadan sifatli tola olish va sifatli urug'lik chigit olish uchun tozalovchi takomillashtirilgan texnologiyaning fizik-mexanik, aerodinamik va texnologik xususiyatlari va ularni tozalash texnologiyasiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazish hamda xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayonida, uni tabiiy xususiyatlarini saqlab qolishni ta'minlovchi vertikal tozalagich qurilmasi va uning ishlash jarayonidagi texnologiya asos qilib olingan.

Tadqiqotning predmetini chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalashning separativ texnologik usuli asosidagi vertikal tozalagich qurilmasining maqbul ish rejimi uchun zarur bo'lgan parametr ko'rsatkichlarini aniqlashga doir matematik, mexanik, dasturlash va grafik hamda boshqa usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika, fizika mexanikasi, ehtimollar nazariyasi, matematik tahlil va matematik statistika va tajriba natijalarini qayta ishlash usullari, kompyuter grafikasi usuli, dasturlash va sinergetika, sonli Runge-Kutta, Eyley va ODS usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi qo'yidagilardan iborat:

tozalanayotgan chigitli paxta oqimini separator yordamida (Vibroelak) tebranayotgan to'rtli yuza sirtida harakatlanayotgan paxta bo'lagini tozalash jarayonida paxtani tabiiy tolasi va chigit qobig'iga hech qanday shikast yetkazmasdan

tozalash qurilmasini yaratish evaziga yuqori tozalash samaradorligiga ega bo'lgan takomillashtirilgan vertikal paxta tozalagich yaratilgan;

tozalagichda paxta oqimi xarakati va to'rtli yuza sirtining gorizontga nisbatan hosil qilgan burchagidan samarali foydalanuvchi chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalashning vertikal vibroelakli tozalagich konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

vertikal usulda ishlovchi takomillashtirilgan tozalagichning ishchi burchagi, oltita pog'onali to'rtli yuza hamda turli aylanish chastotalarga ega bo'lgan tozalash seksiyasi yaratilgan;

qayta ishlanayotgan chigitli paxtaning tabiiy xususiyatlarini yuqori darajada saqlab qoluvchi vertikal usulda tozalovchi takomillashgan vertikal tebranuvchi vibroelak paxta tozalash qurilmasi yaratilgan hamda tajribaviy uskunaning konstruktiv-ekspluatatsion parametrlari ishlab chiqilgan;

qurilma ishchi organlarining harakatini avtomatik ravishda nazorat qiluvchi dasturiy ta'minot yordamida tushuvchi massa (paxta xom ashyosi) ning bir vibroelakdan ikkinchi vibroelakga o'tish vaqtini aniqlagan holda paxta xom ashyosini yuqori samaradorlikda tozalash usuli ishlab chiqilgan;

paxta tozalash zavodi uchun mayda iflosliklardan tozalash seksiyalarining vertikal usulda o'rnatilishi orqali tozalash separatorlari oltita ketma-ket joylashgan paxtani mayda iflosliklardan tozalashning takomillashtirilgan qurilmasi va texnologiyasi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi qo'yidagilardan iborat: Matlab dastur yordamida olingan natijalar tahlili asosida paxta tozalash qurilmasini maqbul ish parametrlari aniqlandi: qiyalik burchagi $\alpha=[26^0-29^0]$; $A=20$ mm amplituda va tebranishlar soni $\omega=[5-8]$ gs hamda $\mu=1$ qiymatlari aniqlandi. Kelgusida shu parametrlar asosida paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasini konstruktiv sxemasi ishlab chiqilgan;

nazariy tadqiqotning ishonchligini ortirish uchun ishlab chiqilgan algoritmgaga binoan Python dasturlash tili yordamida dastur tuzildi va uning yordamida tadqiqotlar o'tkazilgan

tajribalar o'tkazish davomida 1XX qurilmalariga nisbatan taklif qilingan qurilmada tozalash samaradorligi 18-23 % ga oshganligi va sarf bo'layotgan elektr energiya harajatlari 5,7 barobarga kamaytirilgani aniqlangan;

chigit shikastlanish miqdorini kamaytirish hisobiga tolalarda hosil bo'layotgan nuqson va iflos aralashmalar miqdori 3,5% kamayishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shundaki, chigitli paxtani vertikal texnologiyaga asoslangan usulda tozalashdagi nazariy olingan natijalar tahlili, vertikal tozalagich separatori yuzasida paxta bo'lagining tebranma harakatining matematik modellashtirish va dasturlashtirish hamda ular asosida kompyuterda eksperimentlar o'tkazish jarayonida olingan grafik natijalar, "Namangan paxta teks" MChJ, "Kosonsoy paxta tozalash" korxonasi va Mingbuloq tumani «Art Soft Tex» MChJ qo'shma korxonasining "Mingbuloq paxta tozalash maskani"da biz tomondan taklif etilayotgan vertikal tozalagich qurilmasini sinovdan o'tkazilishi hamda olingan natijalarni taqqoslanishi va tajribadan o'tgan tadqiqot ishining yuqori darajadagi ijobiy natijalar olinganligi bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayonida tozalagichning tozalash separatorlarini vertikal joylashishi qo'llanilganda hosil bo'ladigan texnologik ko'rsatkichlar va dinamik jarayonlarning hisoblash uchun matematik modellarini ishlab chiqilganligi, ushbu model asosida dasturiy ta'minotni tuzilganligi, bu dastur yordamida hisoblash eksperimentlari "kompyuter modellashtirish" usuli asosida o'tkazilib, turli variantdagi qurilma parametrlarini aniqlashlar (to'rtli yuza sirtida paxta bo'lagini tebranish chastotasi, amplitudasi, to'rtli yuza sirtini gorizont tekislik bilan hosil qilgan burchagi va boshqalar). Aniqlangan parametrlarga tayangan holda kompyuter grafikasidan foydalanib, PTQni konstruksiyasini elektron chizmasini yaratish va paxtani tozalash jarayonini namoyish etish uchun dasturlash vositalari yordamida PTQni animatsion harakatga keltirish va jarayonni nazariy tahlil etish kabi usullarni yaratish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yangi vertikal tizimda ishlaydigan paxta tozalash qurilmasini, chigitli paxtani mayda iflosliklardan vertikal usulda tozalovchi separativ texnologiyani va mayda iflosliklardan tozalash separatorlarining vertikal usulda o'rnatilishi orqali takomillashtirilgan texnologiya yaratilishi hamda ishlab chiqilgan va oxir oqibatda tola sifati va chigit qobig'i shikastlanishini oldi olinib, ularni tabiiy xususiyati saqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtani iflosliklardan tozalashning takomillashtirilgan texnologiyasini yaratish bo'yicha olingan natijalar asosida:

chigitli paxtani vertikal usulda tozalovchi takomillashtirilgan paxta tozalash qurilmasi "Namangan paxta teks" MChJ, "Kosonsoy paxta tozalash" paxta tozalash zavodining quritish sexiga joriy etilgan ("O'zbekiston paxta - to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2024 yil 16 apreldagi 02/22-165-son ma'lumotnomasi). Natijada sarf bo'layotgan elektr energiya harajatlari 5,7 barobarga kamaytirilishiga erishilgan.

Paxtani vertikal usul texnologiyasida tozalovchi takomillashtirilgan paxta tozalash qurilmasi Mingbuloq tumani «Art Soft Tex» MChJ qo'shma korxonasi "Mingbuloq paxta tozalash maskani"da joriy etilgan ("O'zbekiston paxta - to'qimachilik klasterlari" uyushmasining 2024 yil 16 apreldagi 02/22-165-son ma'lumotnomasi). Natijada Namangan-34, III nav, 5 sinf (qo'1 terim) da o'tkazilganda paxtaning dastlabki ifloslik miqdori 3,1 % ga kamayishiga, paxta xomashyosini tozalash samaradorligi amaldagi tozalash agregatiga nisbatan 18-23 % ga oshirishga, toladagi nuqson va iflos aralashmalar miqdorini 1,5 % ga kamayayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari: respublika konferensiyalarida 8 ta ma'ruza tezislari bilan va halqaro konferensiyalarida 9 ta ma'ruza tezislari bilan hamda 4 ta ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 42 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, shundan 12 tasi chet elda va 8 tasi respublikada nashr

etilgan, O‘zbekiston Respublikasining 1 ta ixtiroga patent, 3 ta elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlarga guvohnomalar olingan va shu mavzuga doir 1 ta monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 186 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ko‘rilayotgan mavzuga doir tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tajribaviy asoslarda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ilmiy tadqiqot ishi mavzusi bo‘yicha analitik tahlil”** deb nomlangan **birinchi bobida** paxtani qayta ishlashda tozalash jarayoni va uni amalga oshirishda zarur bo‘lgan texnika va texnologiyalarni takomillashtirishda davlat tomonidan paxta yetishtirish sohasini rivojlantirishga alohida dastur ishlab chiqilgani, bugungi kunda fan va texnikaning eng yangi yutuqlari asosida yuqori samarali texnologik qurilmalarning yangi avlodini yaratish o‘ta muhimligi, yuzaga kelgan muammolarni tezroq hal etishda qishloq xo‘jaligini sanoatlashtirish, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘zda tutgan holda paxta klasterlarini tashkil etilganligi va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonlarini raqamlashtirish asosida tezlashtirish lozimligi e‘tirof etildi. Shular bilan bir qatorda paxtani qayta ishlash sohasi dunyo miqyosida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uni qayta ishlash uchun texnika-texnologiyaga bo‘lgan ehtiyojni tobora oshishi, paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmalari va texnologiyalarini yanada takomillashtirish zaruriyati ko‘rsatildi. Buning uchun esa, paxtani tozalashga doir statistik ko‘rsatkichlar, usul va texnologiyalari tahlili, mavjud tozalash agregatlari va qurilmalari tahlili hamda ushbu yo‘nalishga doir barcha olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlili ko‘rsatilib, tadqiqotning maqsad va vazifalari asoslangan.

Biz tomondan olib borilgan nazariy va amaliy ilmiy izlanishlarga tayangan holda paxtani mayda iflosliklardan tozalashning bugungi talabga javob beradigan samarali innovatsion texnologiyasini yaratish masalalari yetarlicha o‘rganilmaganligi va hal etilmaganligi ma‘lum bo‘ldi.


Respublikamizda sohada xo‘jalik yuritishning yangi shakliga o‘tishi munosabati bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga talab oshdi, tola sifatini yaxshilash ko‘proq tozalash jarayonida paxtaga ta’sir etuvchi mexanik ta’sirlarni kamaytirish metodikasiga asoslanish muhimroq ekanligi kuzatildi va bunday metodikalarni tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish natijasida tola va chigit sifatini buzilish sabablari yanada chuqurroq o‘rganib chiqish zarurligini hamda bu sabablarga barham beruvchi yechimlarni topish muhim ekanligi ma‘lum bo‘ldi. ya

Kuzatish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, respublika paxta zavodlarida tozalash jarayoni UXK agregatlari yordamida amalga oshiriladi va bu agregat qoziqli-baraban yordamida paxtani "zarba bilan titish" tamoyiliga asoslangan. Bu usulda birinchidan paxtani tabiiy tolasi shikastlanib, sifatsiz mahsulotlar olishga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan chigit "zarbalar" hisobiga ko'plab chigitlar shikastlanadi va kelgusida bu chigitlardan "urug'" sifatida foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu muammolarni hal etishda paxtaning tabiiy xususiyatlariga ta'sir etmasligi uchun "mexanik zarbasiz" tozalashni, ya'ni, vibroelak yordamida mayda iflosliklardan tozalashni vertikal texnologiyasini ilmiy asoslarini ishlab chiqdik.


Dissertatsiyaning "Paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayonining nazariy asoslari" deb nomlangan 2-bobida paxtada iflosliklarni yuzaga kelish sabablari va omillari ustidagi tadqiqotlar o'rganilib, paxtani qayta ishlash jarayonida uning tarkibidagi yirik iflosliklar paxta xom-ashyosi tarkibiga kamroq kirishi, ammo mayda iflosliklar esa, paxta xom-ashyosi tarkibiga chuqur o'rnanishligi kuzatildi. Bunday mayda iflosliklarni paxta tarkibidan chiqarish hamda ajratish o'z navbatida murakkab tebranishni talab qilib (gorizontal va vertikal tebranishga ega bo'ladi), uni amalda bo'lishlik uchun qiya tekislik (to'rtli yuzga sirti) va bu tekislikda paxta bo'lagini harakatlantirish (elakdan o'tkazib g'alvirlash) zaruriyati tug'iladi (1-rasm). Maqsad paxta tarkibidagi mayda iflosliklarni bartaraf etish. Aynan shu holatni inobatga olib, tozalash qurilma chizmasi va maket ko'rinishini quyidagicha taklif etamiz (2-3-rasmlar).

Biz tomondan taklif etilayotgan vertikal texnologiyaga asoslangan qurilma yordamida paxta xomashyosi tarkibidagi turli mayda iflosliklarni ajratib olish ishlari amalga oshiriladi. Qurilmada to'rtli yuzalar (2) bir-biriga nisbatan perpendikulyar o'rnatilganligi bois, paxta bo'laklari keyingi to'rtli yuzaga ag'darilib tushadi va tolaning tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda, chigitga shikast yetkazmagan holda mayda iflosliklardan tozalash imkoniyati yaratiladi.

Tola sifatini oshirish va neps miqdorini (kalta uzunlikdagi tollar) kamaytirish uchun olib borilgan bosqichma-bosqich izlanishlarda va qurilmani loyihalashtirish jarayoni davomida avval sodda holatda ilmiy izlanishlar olib borilib, keyinroq bu jarayon murakkabroq holatlarda, maket ko'rinishida (3-rasm) davom ettirildi va bu boradagi erishilgan natijalar yillar davomida chop etib borildi.



1-rasm. Tozalash qurilmasida (vibroelak) chigitli paxtani tozalash jarayoni




2-chizma. Vertikal tozalagich sxemasi.




3-rasm. Taklif paxta tozalash qurilmasining maketi.

Bu boradagi tadqiqot ishlarini davom ettirib, qo'yilgan muammoga yanada yaqin kelish uchun ushbu qurilmani fazoviy ko'rishini va uni asosiy qismlarini quyidagicha loyihalashtirdik (4-rasm).



4-rasm. Paxtani mayda iflosliklardan tozalashni vertikal qurilmasini fazoviy ko'rishini.



5-rasm. Paxta bo'lakchasining vertical to'rli sirt yuzasida garmonik harakati davomida ta'sir qiluvchi kuchlar (Xususiy holda, $F_{xavo_k} = 0$).

Izox: bu yerda (4-rasm): 1) xarakatni taminlagich; 2) to'rli sirt (tebranma harakatda); 3) ximoyalovchi va yo'naltiruvchi sirt; 4) ximoyalovchi sirt; 5) iflosliklar kamerasi; 6) kulochoklar (ellipsoidlar, to'rli sirtning harakatga keltiradi); 7) tozalangan paxta tushish kamerasi.

Ushbu chizmada ko'rsatilgan qurilma: O'zbekiston Respublikasi. Davlat patent idorasi. Ixtiro patentiga tavsif № UZ IAP 03256 IAP 2005 02.03.2005 raqamda muhofazalangan.

Loyihalashtirilgan qurilmada paxtani tozalash ishlari tamomila yangi texnologiyada – paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasi (bu usulda paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmalari (g'alvir yoki elak) ketma – ket, vertikal usulda joylashtirilgan) yordamida tozalanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan qurilmani (4-rasm) amaliyotda ishlash jarayonida, ya'ni, tozalash jarayonida uning ish rejimi parametrlarini maqbullarini aniqlash lozim bo'ladi. Bunday yondashish jarayon uchun qonuniyatlar asosida matematik modellashtirilishini taqozo etadi.

U holda paxta bo'lagining to'rli yuzadagi harakatini quyidagi funksiya ko'rinishida ifodalashimiz mumkin:

$F_{\mu} = \Omega I(\alpha, \mu, \omega, A)$, ya'ni, bunday holatda harakat faqatgina α (to'rli yuzaning gorizont tekislik bilan hosil qilgan burchak), μ (to'rli yuzaning ishqalanish koeffitsienti), ω (to'rli yuzaning tebranish chastotasi), A (to'rli yuzaning tebranish amplitudasi) parametrlariga bog'liq holda bo'ladi.

Xususiy holda qiya tekislik to'rli yuzasida tebranayotgan paxta bo'lagi harakati ustida kuzatish ishlarini olib borish bilan birga yuzaga kelgan harakatlarni matematik ifoda etish metodikasini ko'rib chiqamiz.

Matematik ifodani shakllantirishda mexanik qonun bo'yicha to'rli yuza sirtidagi paxta bo'lagini garmonik tebranish jarayonini asos qilib olindi va uni quyidagi chizmada nisbiy hol uchun keltiramiz (5-rasm).

Paxta bo'lakchasini ou - yo'nalishida garmonik qonuniyat (1) bilan nisbiy harakatda bo'lsin (5-rasm).

$$\tau = A \sin \omega t \quad (1)$$

Ya'ni to'rtli yuzada harakatlanayotgan paxta bo'lakchasi (1) qonuniyat bilan garmonik harakat qilyapti deb qaraymiz. Bunda paxta bo'lakchasiga ta'sir qiluvchi va yo'nalishdagi kuchlar:

$$\left. \begin{aligned} X &= P \sin \alpha - F_{ish_x} \\ Y &= N - P \cos \alpha = A \sin \omega t \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

bu yerda:

$P = mg$ - og'irlik kuchi;

$F_{ish_x} = \mu_x N$ - paxta bo'lakchasiga ta'sir qiluvchi ishqalanish kuchi.

X, Y - Ox va Oy o'qlari bo'ylab paxta bo'lakchasiga ta'sir etuvchi kuchlar, N - normal bosim kuchi; A - tashqi kuch tebranish amplitudasi; ω - tebranish soni; $t = t_0 : t_n$, t - paxta bo'lakchasining harakatida boshlang'ich vaqt - t_0 ; t_n - paxta bo'lakchasi harakatida oxirgi vaqt.

Tegishli o'zgarishlar asosida paxta bo'lakchasi harakat differensial tenglamasini quyidagicha sharhlaymiz(3):

$$\left. \begin{aligned} ma_x &= mg \sin \alpha - \mu_x N \quad (a) \\ ma_y &= N - mg \cos \alpha \quad (b) \end{aligned} \right\} \quad (3)$$

(3) ifodaning har ikki tomonini m (massa)ga bo'lib yuboramiz.

$$\left. \begin{aligned} a_x &= g \sin \alpha - \frac{\mu_x}{m} N \quad (a) \\ a_y &= \frac{N}{m} - g \cos \alpha \quad (b) \end{aligned} \right\}$$

yoki,

$$\left. \begin{aligned} \frac{du}{dt} &= g \sin \alpha - \frac{\mu_x}{m} N \quad (a) \\ \frac{dw}{dt} &= \frac{N}{m} - g \cos \alpha \quad (b) \end{aligned} \right\} \quad (4)$$

Bu yerda u, w - mos ravishda paxta bo'lakchasining ox va oy yo'nalishdagi tezliklari. Oy -yo'nalishdagi harakat qonuniyatidan N ifodani aniqlaymiz:

$$m \frac{d^2 \tau}{dt^2} = N - mg \cos \alpha \quad \Rightarrow \quad N = mg \cos \alpha - mA \omega^2 \sin \omega t \quad (5)$$

(5) ifodani (4) ga qo'yamiz va quyidagicha ifodaga ega bo'lamiz:

$$\left. \begin{aligned} \frac{du}{dt} &= g \sin \alpha - \mu_x (g \cos \alpha - A \omega^2 \sin \omega t) \quad (a) \\ \frac{dw}{dt} &= g \cos \alpha - A \omega^2 \sin \omega t - g \cos \alpha = -A \omega^2 \sin \omega t \quad (b) \end{aligned} \right\} \quad (6)$$

(6) tenglamalar sistemasini 1 marotaba integrallash orqali tezlik ifodasini aniqlaymiz:

$$\left. \begin{aligned} u &= (g \sin \alpha - \mu_x g \cos \alpha)t - \mu_x A \omega \cos \omega t \quad (a) \\ w &= A \omega \cos \omega t \quad (b) \end{aligned} \right\}$$

yoki,

$$\left. \begin{aligned} \frac{dx}{dt} &= (g \sin \alpha - \mu_x g \cos \alpha)t - \mu_x A \omega \cos \omega t & (a) \\ \frac{dy}{dt} &= A \omega \cos \omega t & (b) \end{aligned} \right\} \quad (7)$$

(7) tenglamalar sistemasini 1 marotaba integrallash orqali x va u koordinatalar bo'yicha mos ravishda ko'chish ifodalarini aniqlaymiz:

$$\left. \begin{aligned} x &= (g \sin \alpha - \mu_x g \cos \alpha) \frac{t^2}{2} - \mu_x A \sin \omega t & (a) \\ y &= A \sin \omega t & (b) \end{aligned} \right\} \quad (8)$$

(8) tenglamalar sistemasining (a) tenglamasini $x=x_1(t)+x_2(t)$ ko'rinishida yozib olsak, ya'ni,

$$x_1(t) = (g \sin \alpha - \mu_x g \cos \alpha) \frac{t^2}{2} \quad (9)$$

$$x_2(t) = -\mu_x A \sin \omega t \quad (10)$$

Demak, paxta bo'lakchasining murakkab harakati: ko'chirma harakat (9) va (10) nisbiy harakat yig'indilari kabi bo'lar ekan.

Dissertatsiyaning “Tejamkor paxta tozalash qurilmasini ish rejimi parametrlarini aniqlashga imkon beruvchi dasturiy ta'minotni ishlab chiqish” deb nomlangan 3-bobida paxtani mayda iflosliklardan tozalash texnologik jarayoni masalasini yechish uchun uni hisoblash algoritmini ishlab chiqish, bu algoritmgaga binoan MatLAB va Python dasturlari yordamida paxta tozalash qurilmasini ish rejimi parametrlarini aniqlashga imkon beruvchi dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va ular yordamida tadqiqotlar o'tkazish bayon etildi.

Ko'rilayotgan masalani algoritmini ishlab chiqish jarayonida Koshi masalasi sifatida qarab, uning yechish usullariga binoan amaliy masalalarni yechishda ko'p qo'llaniladigan sonli usullaridan: Eyler, Runge-Kutta va oddiy differensial sistemalari(ODS)lardan foydalanildi. Oddiy differensial tenglamalarni MatLab dasturi yordamida m-fayllar ko'rinishiga keltirib, dastur tuzish orqali hamda tayyor yechgichlar yordamida masalani hal etildi. Buning uchun yuqorida keltirilgan (9) va (10) tenglamalardan foydalanamiz. MatLab dasturida m-fayllar yaratamiz va ular asosida tegishli paxta bo'lakchasini X - o'qi bo'ylab murakkab harakat tezligining o'zgarish grafigini olamiz. Buning uchun: qiyalik burchagi $\alpha=21$ gradusdan $\alpha=32$ gradusgacha; tebranish amplitudasi $A=5$ mmdan $A=30$ mmgacha ; ishqalanish koeffitsienti- $\mu=1$; tebranish chastotasi - $\omega=3$ gersdan $\omega=12$ gersgacha bo'lgan turli qiymatlar bergan holda tadqiqotlar o'tkazildi(dissertatsiyaning 3.7-3.36 rasmlarida keltirilgan grafiklar). Xuddi shunday tadqiqot ishlarini Python dasturi yordamida ham amalga oshirish mumkin. Ko'rilayotgan masala algoritmgaga binoan Python dasturi yordamida paxta tozalash qurilmasini ish rejimi parametrlarini aniqlashga imkon beruvchi dasturiy ta'minotni ishlab chiqildi va uning yordamida tadqiqotlar o'tkazildi (dissertatsiyaning 3.37-3.46 rasmlarida grafiklar keltirilgan).

Dissertatsiyaning “Paxtani mayda iflosliklardan tozalovchi qurilmasining texnologik ko‘rsatkichlarini aniqlash” deb nomlangan 4-bobida asosan ko‘rilayotgan masalani algoritmini ishlab chiqish jarayonida Koshi masalasi sifatida qarab, uning yechish usullariga binoan amaliy masalalarni yechishda ko‘p qo‘llaniladigan sonli usullaridan: Eyler, Runge-Kutta va oddiy differensial sistemalari(ODS)lardan foydalanildi. Oddiy differensial tenglamalarni MatLab dasturi yordamida m-fayllar ko‘rinishiga keltirib, dastur tuzish orqali hamda tayyor yechgichlar yordamida masalani hal etildi. Buning uchun yuqorida keltirilgan (9) va (10) tenglamalardan foydalanamiz. MatLab dasturida m-fayllar yaratamiz:

1. MatLab dasturi ODS-usulida m-fayl yordamida to‘rli sirt yuzasida X - o‘qi bo‘ylab paxta bo‘lakchasini murakkab harakat tezligining qiyalik burchagi qiymatlariga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigini olish uchun dastur (Dastur – 1).

```
figure
g=9.81;
myu=1;
t=0:0.01:5;
for alf=25:30
x=(g*sin(alf)-myu*g*cos(alf))*(t.^2)/2;
hold on
legend( "alfa=25", "alfa=26","alfa=27","alfa=28","alfa=29","alfa=30")
plot(t,x)
end
```

2. MatLab dasturi Runge-Kutta -usulida m-fayl yordamida to‘rli sirt yuzasida X - o‘qi bo‘ylab paxta bo‘lakchasini murakkab harakat tezligining qiyalik burchagi qiymatlariga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigini olish uchun dastur (Dastur – 2).

```
figure
g=9.81;
myu=1;
for alf=25:30
[t,x]=ode45(@(t,x) (g*sin(alf)-myu*g*cos(alf))*((t.^2)/2),[0 5],0);
hold on
legend( "alfa=25", "alfa=26","alfa=27","alfa=28","alfa=29","alfa=30")
plot(t,x)
end
```

Yuqorida aniqlangan qiymatlardan foydalanib, to‘rli yuzaning tebranish amplitudasi (A) hamda chastotasiga (ω) qiymatlar berish orqali harakat o‘zgarishining grafigini olish uchun MatLab dasturida m-fayllar yaratamiz.

3. MatLab dasturi ODS - usulida m-fayl yordamida to‘rli sirt yuzasida X - o‘qi bo‘ylab paxta bo‘lakchasini murakkab harakat tezligining chastota qiymatlariga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigini olish uchun dastur (Dastur – 3).

```
figure
A=20;
myu=1;
g=9.81;
alf=26;
```

```

t=0:0.01:5;
for omg=5:8
x=(g*sin(alf)-myu*g*cos(alf))*(t.^2)/2-myA*sin(omg*t);
hold on
grid on
legend( "omg=5", "omg=6","omg=7","omg=8")
plot(t,x)
end

```

4. MatLab dasturi Runge-Kutta -usulida m-fayl yordamida to‘rli sirt yuzasida X - o‘qi bo‘ylab paxta bo‘lakchasini murakkab harakat tezligining chastota qiymatlariga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigini olish uchun dastur (Dastur – 4).

```

figure
A=20;
myu=1;
g=9.81;
alf=26;
for omg=5:8
[t,x]=ode45(@(t,x)(g*sin(alf)-myu*g*cos(alf))*((t.^2)/2)myA*sin(omg*t),
[0 5],0);
hold on
grid on
legend( "omg=5", "omg=6","omg=7","omg=8")
plot(t,x)
end

```

Yuqorida keltirilgan dastur asosida ODS va Runge - Kutta yechish usulida to‘rli sirt yuzasidagi paxta bo‘lakchasini X - o‘qi bo‘ylab murakkab harakat tezligining o‘zgarish grafigini olish va qurilma ish rejimi parametrlarini: qiyalik burchagi α ; tebranish amplitudasi A; ishqalanish koefitsienti- μ ; tebranish chastotasi - ω larga turli qiymatlar bergan holda tadqiqotlar o‘tkazish mumkin.

Keltirilgan tadqiqot ishlarini Python dasturi yordamida ham amalga oshirish mumkin. Ko‘rilayotgan masala algoritmiga binoan Python dasturi yordamida paxta tozalash qurilmasini ish rejimi parametrlarini aniqlashga imkon beruvchi dasturiy ta‘minotni ishlab chiqiladi va uni quyida keltiramiz.

Python dasturi yordamida to‘rli sirt yuzasida X - o‘qi bo‘ylab paxta bo‘lakchasini murakkab harakat tezligining o‘zgarish grafigini olish uchun dastur (Dastur – 5).

```

Python dasturlash tilida matematik modelga asoslangan dastur[104; 105].
import matplotlib.pyplot as plt
from math import *
from tkinter import *
from tkinter import Tk
root.resizable(FALSE, FALSE)
def hisoblash():
A = float(entry5_str.get())
myu = float(entry2_str.get())

```

```

g = 9.81
alf = float(entry3_str.get())
omg = int(entry4_str.get())
new_arr = []
all_omg=[]
count=0
for i in range(omg,9):
for j in range(0,51,1):
z=j/10
count+=1
x = (g * sin(alf) - myu * g * cos(alf)) * (z ** 2) / 2 - myu * A * sin(i * z)
new_arr.append(x)
all_omg.append(new_arr)
new_arr=[]
plt.plot(all_omg[0], label='Eyler')
plt.plot(all_omg[1], label='Eyler')
plt.plot(all_omg[2], label='Eyler')
plt.plot(all_omg[3], label='Eyler')
plt.grid(color='green', linestyle='-.', linewidth=0.5)
plt.legend(['omg5','omg6','omg7','omg8'])
plt.xlabel("Qadamlari soni")
plt.ylabel("Funksiya natijasi"), plt.show()
def basic_window():
global basic, entry2_str, entry3_str, entry4_str, entry5_str
root.destroy()
basic = Tk()
basic.geometry("900x600")
basic.title('Ergasheva Sadoqat Dissertatsiyasi')
basic.resizable(FALSE, FALSE)
label6 = Label(text="Harakatning Ko'chish Grafigi", fg='blue', font=('Verdana',
14, 'bold')).place(x=170, y=80)
canvas1 = Canvas(basic, width=550, height=280, background='yellow')
canvas1.create_line(275, 0, 275, 320)
canvas1.create_line(0, 140, 550, 140)
canvas1.place(x=50, y=130)
label2 = Label(text="Myu= ", font=('Verdana', 12, 'bold')).place(x=700, y=100)
entry2_str = StringVar()
entry2_str.set("")
entry2 = Entry(basic, textvariable=entry2_str, width=6, font=(" Verdana
12")).place(x=810, y=103)
label3 = Label(text="Alfa= ", font=('Verdana', 12, 'bold')).place(x=700, y=130)
entry3_str = StringVar()
entry3_str.set("")
entry3 = Entry(basic, textvariable=entry3_str, width=6, font=(" Verdana
12")).place(x=810, y=133)

```

```

label4 = Label(text="Omega= ", font=('Verdana', 12, 'bold')).place(x=700,
y=160)
entry4_str = StringVar()
entry4_str.set("")
entry4 = Entry(basic, textvariable=entry4_str, width=6, font=(" Verdana
12")).place(x=810, y=163)
label5 = Label(text="Amplituda= ", font=('Verdana', 12, 'bold')).place(x=700,
y=190)
entry5_str = StringVar()
entry5_str.set("")
entry5 = Entry(basic, textvariable=entry5_str, width=6, font=(" Verdana
12")).place(x=810, y=193)
btnXisoblash = Button(basic, text='xisoblash', padx=20, pady=8,
font=('Verdana', 15, 'bold'),
fg='green', activebackground='green', activeforeground='white',
command=hisoblash).place(x=700, y=250)
btnChiqish = Button(basic, text='chiqish', padx=34, pady=8, font=('Verdana',
15, 'bold'),
fg='green', activebackground='green', activeforeground='white',
command=chiqish).place(x=700, y=320)
basic.mainloop()
label1 = Label(root, text=info, fg='blue', font=('Verdana', 16, 'bold'), pady=20)
label1.pack()
def chiqish():
basic.destroy()
btn1 = Button(root, text='Asosiy Oyna', padx=20, pady=20, font=('Verdana', 16,
'bold'),
fg='green', activebackground='green', activeforeground='white',
command=basic_window).place(x=560, y=450)
root.mainloop()


```

Yuqorida keltirilgan dasturlar asosida(Dastur-1,2,3,4,5) to'rtli sirt yuzasidagi paxta bo'lakchasini X - o'qi bo'ylab murakkab harakat tezligining qurilma ish rejimi parametrlarini (qiyalik burchagi - α , tebranish amplitudasi -A; tebranish chastotasi - ω va ishqalanish koeffitsienti- μ larga bog'liq ravishda o'zgarish grafikini olish uchun tadqiqotlar o'tkazildi (dissertatsiyaning 3.31-3.38 rasmlarida grafiklar keltirilgan).


MatLAB va Python dasturi yordamida olingan tadqiqot natijalari asosida(dissertatsiyaning 3.7-3.36 rasmlar va 3.37-3.46 rasmlarida grafiklar keltirilgan) paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasini ish rejimi uchun olingan grafiklardan bir tekisda normal ko'rinishga ega bo'lganlarini (eng maqbul parametrlarini) aniqladik va ularni quyida keltiramiz(6-rasm):

Yuqoridagi olingan natijalarni tahlil qilgan holda shuni aytish mumkinki, ODS va Runga Kutta yechish usullarida to'rtli sirt yuzasidagi paxta bo'lakchasini X - o'qi bo'ylab $\mu=1$, $\alpha=26$ gradus, $\omega=5$ gs , A=20 mm lardagi qiymatlari (**6-rasm.**) va X - o'qi bo'ylab $\mu=1$, $\alpha=29$, $\omega=5$, A=20 mmlardagi ko'rsatkich qiymatlarida (**7-rasm.**) murakkab harakat tezligining o'zgarish grafiklari bir tekisda simmetrik ko'rinishga

ega. Demak, paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasini ish rejimi uchun maqbul parametrlarini aniqlagan holda: $\mu=1$, $\alpha=26$ gradus, $\omega=5$ gs , $A=20$ mm lardagi qiymatlari va $\mu=1$, $\alpha=29$ gradus, $\omega=5$, $A=20$ mmlar maqbul variantdagi qiymatlar bo‘lib, ular asosida kelgusida paxtani mayda iflosliklardan tozalash qurilmasini konstruktiv chizmasini tayyorlashga imkon bo‘ladi.



6-rasm. Paxta bo‘lakchasini X - o‘qi bo‘ylab $\mu=1$, $\alpha=26$, $\omega=(5-8)$ gs, $A=20$ mm larda murakkab harakat tezligining o‘zgarish grafigi.



7-rasm. Paxta bo‘lakchasini X - o‘qi bo‘ylab $\mu=1$, $\alpha=29$ gradus, $\omega=(5-8)$ gs, $A=20$ mm larda murakkab harakat tezligining o‘zgarish grafigi.

Paxta bo‘lakchasini to‘rli yuza sirti bo‘ylab harakat jarayonida uning tarkibidagi iflosliklarning ajratishni quyidagi nazariy tadqiqotda keltiramiz.

Bo‘lakchanning harakat tenglamasi

$$m\ddot{y} = N - mg \cos \alpha \quad (11)$$

$$m\ddot{x} = -\mu N + mg \sin \alpha \quad (12)$$

To‘rli yuza normal yo‘nalishida $Asin(\omega t)$ qonun bilan tebransin.

U holda tenglamaga

$$y = A \sin(\omega t) \text{ tenglik qo‘yib, normal kuch } N \text{ ni aniqlab,} \quad (13)$$

tenglamaga qo‘ysak bo‘lakchanning yuza bo‘ylab harakat tenglamasini olamiz

$$\ddot{x} = g(\sin \alpha - \mu \cos \alpha) + A\mu\omega^2 \sin(\omega t) \quad (14)$$

(14) tenglamaning $x(0)=0$ (\dot{x})(0)=0 shartlardagi yechimi qo‘yidagicha bo‘ladi:

$$\dot{x} = gt(\sin \alpha - \mu \cos \alpha) + A\mu\omega[1 - \cos(\omega t)]$$

$$x = gt^2 (\sin \alpha - \mu \cos \alpha) / 2 + A\mu[\omega t - \sin(\omega t)]$$

Sevostyanov taklif etgan modelga ko‘ra boshlang‘ich massasi m_0 va harakat davomidagi massasi m bo‘lgan bo‘lakcha tarkibidan ajralgan massasining nisbiy miqdori qo‘yidagi qonun bilan aniqlanadi:

$$(m_0 - m) / m_0 = dm = 1 - \exp[-\lambda x(t)] \quad (15)$$


Bu yerda λ tajriba asosida aniqlanadigan kattalik. (15) formulaning o‘rinli bo‘lishi lozim. Hisoblar parametrlarning qo‘yidagi qiymatlarida bajarilgan $\mu=0.45$, $A=0.02$ metr, $\lambda=0.1$.

$N > 0$ sharti bajariladigan holni ko‘rib chiqamiz.


8-rasmda keltirilgan normal kuch N/mg ning qiyalik bo‘rchagi α_0 va chastota w (1/cek) ning turli qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafiglari keltrilgan. Grafiglar tahlilidan normal kuchning musbat ishorasini tekislik tebranish chastotasining $0 < w < 20$ oraliqlardagi qiymatlarida saqlaydi. Qiya tekislik burchagining oshishi bo‘lakchanning qiya tekislikdagi masofani bosib o‘tish vaqti 1.5-2 martagacha va normal kuch tebranish amplitudasining qisman kamayishi kuzatiladi.

Bo‘lakchanig qiya tekislikda ko‘chishining turli qiyalik burchagi α_0 va tebranish chastotasining turli qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafiglari 8-a-b- rasmlarda keltirilgan.

Grafiklar tahlilidan tebranish chastotasi oshganda bo‘lakchanning ko‘chishari ham oshadi. Qiyalik bo‘rchagi ohsa bo‘lakchanning tekislikdagi harakatlanish vaqtining kamayishi va turli chastotalardagi ko‘chishlar bir biridan kam farqlanishi mumkin.




a) $\alpha=28^{\circ}$




b) $\alpha=33^{\circ}$

8-rasm. Normal kuch N/mg ning qiyalik bo‘rchagi α° va chastota $w(1/cek)$ ning turli qiymatlarida vaqt $t(cek)$ bo‘yicha o‘zgarish grafiklari:
1) $w = 0$, 2) $w = 7$, 3) $w = 13$, 4) $w = 20$.



a) $\alpha=28^{\circ}$



b) $\alpha=33^{\circ}$

9-rasm. Bo‘lakchanig ko‘chishining turli qiyalik burchagi α° va tebranish chastotasining turli qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafiklari:
1) $w = 0$, 2) $w = 7$, 3) $w = 13$, 4) $w = 20$.

Bo‘lakcha tarkibidan ajralgan iflosliklarning uning boshlang‘ich massasiga nisbatan (foizda) turli qiyalik burchagi α° va tebranish chastotasining turli qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafiklari(9-a-b-rasmlar):

1- $w=0$, 2- $w=7$, 3- $w=13$, 4- $w=20$.

